

“TOLERANTLIK” TUSHUNCHASINING MAZMUN MOHIYATI

Murodjonova Dilzoraxon Tolibjon qizi-

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

1-bosqich 115-guruh talabasi

Iskandarov Sherzod Abdugʻaniyevich-

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqola bagʻrikenglik tushunchasining xalqaro ilmiy adabiyotlarda ifodalanishi yaʼni tolerantlik tushunchasi nimani anglatishi shuningdek ushbu tushunchaning boshqaruv tizimidagi roli haqida yoritiladi.*

Kalit soʻzlar. *Diniy tolerantlik, madaniy tolerantlik, siyosiy tolerantlik, “Bagʻrikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”, “Harakatlar strategiyasi”, din ishlari boʻyicha qoʻmita.*

Tolerantlik (lot. tolerantia — sabr-toqat), bagʻrikenglik — oʻzgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuygʻulari, fikr mulohazalari, gʻoyalari va eʼtiqodlariga nisbatan toqatli va bagʻrikeng boʻlish. Bu har kim oʻz qarashlarida erkin boʻlishini va bu huquqni boshqalarda ham tan olishini anglatadi. Tolerantlik jamiyatda tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikni taʼminlashning muhim omili hisoblanadi. Hozirgi dunyoda tolerantlik kundalik hayotda, jamiyatda, iqtisodiy rivojlanishda, shuningdek, ish joyida oʻta muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki tolerantlikning biz va boshqa millatlar oilasida qadriyat sifatida namoyon boʻlishi hamda diniy, madaniy, va siyosiy tolerantlikni oʻrganish bugun jamiyatning oʻziga xosligi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va oʻzaro bogʻliklik, keng miqyosli migratsiya va aholining koʻchib yurishi va boshqa jamiyatda tolerantlik

tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag'rikenglik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaklashtirishdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Tolerantlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida YUNESKO "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"ni qabul qilgan (1995-yil 16 noyabr). Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini O'zbekiston misolida ko'rish mumkin. Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o'rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyili ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagan va bu xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. 16 ta konfessiyaga mansub din vakillari yurtimizda hamkor, hamjihat yashab kelayotgani esa dinlararo tolerantlikning yaqqol namunasidir.

Tolerantlik turli millat oilalarida qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Koreya oilalarida tolerantlik mehribonlik, tushunish, qabul qilish, boshqa odamlarning qadr-qimmatini hurmat qilish, qadriyatlarini avzal ko'rish bilan ajralib turadi. Amerika oilalarida esa tolerantlikni shakllantirishda boshqa xalqlar madaniyati va qadriyatlarini tushunish, qabul qilish va hurmat qilishni shuningdek, alturizm, boshqalarni hurmat qilish kabi ta'lim usullaridan foydalaniladi.

Fransiyada yosh avlodning milliy o'zligini shakllantirishda oiladagi tolerantlikning ham ta'siri katta hisoblanadi.

Tolerantlik bir nechta turlarga bo'linadi. Diniy tolerantlik turli din vakillarining o'z e'tiqodlarini erkin amalga oshirishini anglatadi. O'zbekistonda islom, xristianlik va boshqa dinlar vakillari birgalikda yashaydi. Madaniy tolerantlik turli xil madaniyatlar va an'analarni hurmat qilishni o'z ichiga oladi. Masalan, o'zbek, rus, tojik va boshqa millatlarning bayramlari birgalikda nishonlanadi. Bu millatlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlaydi. Siyosiy tolerantlik esa turli siyosiy qarashlarga hurmat ko'rsatishni anglatadi. Har bir inson o'z fikrini erkin bildirishi mumkin. Bu demokratik jamiyatning asosiy tamoyilidir.

Yaqin o'tmishda yuzaga kelgan inqirozli vaziyat sababchisi bo'lan korona virus pandemiyasi millatlararo ziddiyat va konfessiyalararo munosabatlarning keskinlashuviga olib kelayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

AQShning "Pyu" tadqiqot markazi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining aksariyati yashaydigan 50 dan ortiq mamlakatlarda insonlar bir birlariga murosasiz munosabatda bo'lishi yoki alohida etnik guruhlarining huquq va erkinliklariga nisbatan jiddiy cheklovlar o'rnatilishiga duch kelmoqda. Ayniqsa, insonlar muayyan davlatda harbiy harakatlarning oqibatlaridan aziyat chekmoqda. Etnik kelib chiqishi, biror dinga e'tiqod qilish yoki qilmasligi sababli ta'qiblar, jazolash, kamsitish juda ko'p insonlar uchun kunlik tartibiy holatga aylanmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlari qonunchiligida va xalqaro-huquqiy hujjatlarda inson huquqlarini himoya qilish tamoyilining mustahkamlanganligiga qaramay, ushbu huquqiy me'yor dunyoning ayrim hududlarida cheklashlar, buzilishlar va amal qilmaslikka olib kelmoqda. Shu bois jamiyatlarda bag'rikenglik

SJIF:5.219

(tolerantlik)ni ta'minlash jahon hamjamiyatining jamoaviy mas'uliyati bo'lib qolmoqda.

Zo'ravonlikka qarshi kurashish va bag'rikenglik g'oyalarini keng targ'ib qilish maqsadida YuNESKO hindistonlik rassom, yozuvchi va diplomat hamda mazkur tashkilotning yaxshi niyat elchisi bo'lgan Madanjit Singx (1924-2013) nomi bilan atalgan mukofotni joriy etdi. Mukofot 1995 yilda ta'sis etilgan bo'lib, u har ikki yilda bir marotaba zo'ravonlikka qarshi kurash va bag'rikenglikni targ'ib qilishda muhim hissa qo'shgan shaxslarga va samarali faoliyat olib borayotgan muassasalar hamda tashkilotlarga beriladi. 2016-yilda ushbu mukofot turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi muloqotni rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy va o'quv dasturlarini ishlab chiqqan psixologiya va tolerantlik pedagogikasi sohasida faoliyat yurituvchi Rossiya federal ilmiy-uslubiy markaziga topshirildi. 2018- yilda mukofot bag'rikenglik g'oyasi targ'iboti uchun kanadalik rejissyor Manon Barbeau va NNT «Birga yashash tashabbusi» (Keniya)ga berilgan bo'lsa, 2020-yilda Kongo demokratik respublikasining Mojarolarni bartaraf qilish markazi jangarilar safiga yollangan bola-asakarlarni qutqarish uchun va ularni o'z jamoalariga reintegratsiya yo'nalishida olib borgan ishlari uchun mukofotga loyiq topildi.

Inson huquqlari – inson huquqlarining barcha kategoriyalari – taklif etilayotgan islohotlarning zamini bo'lib xizmat etuvchi keng ko'lamli strategik hujjat, ya'ni Prezident tomonidan ilgari surilayotgan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida belgilangan barcha beshta ustuvor yo'nalishda muhim o'rin egallaydi.

Strategiyaga muvofiq, mamlakatda ijtimoiy hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash O'zbekistonning zamonaviy davlat sifatida

rivojlanishining ajralmas qismidir. Xususan, soʻnggi yillarda, davlat qurilishi, millatlararo totuvlik, vijdon va eʼtiqod erkinligini taʼminlash sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatlarning aksariyati diniy eʼtiqodi yoki millatidan qatʼiy nazar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kengaytirish, jumladan, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etishga qaratilgandir.

2017-yil 19-maydagi Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan Oʻzbekiston amaliyotida birinchi marta Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasi – millatlararo munosabatlar sohasida yagona siyosatni amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvi organi tashkil etildi. 3 Shuningdek, 2019 yilda jamiyatda millatlararo totuvlik va bagʻrikenglikni taʼminlash, doʻstlik muhitini shakllantirishga yoʻnaltirilgan millatlararo munosabatlar sohasida Oʻzbekiston Respublikasi davlat siyosati kontseptsiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, davlat idoralarining diniy tashkilotlar bilan oʻzaro aloqalarini muvofiqlashtiruvchi Din ishlari boʻyicha qoʻmita faoliyati ham takomillashtirildi.

Mamlakatning har qanday hududida turli etnik guruhlar va din vakillari tinch va doʻstona yashaydigan mahallalar mavjud. Ular birgalikda milliy bayramlarni nishonlaydilar, bir-birlariga yordam beradilar va qoʻllab quvvatlaydilar. Shunday qilib, madaniyatlarning oʻzaro boyishi turli millat va din vakillarining maʼlum bir hududlarda roʻy beradi, bu esa jamiyatda bagʻrikenglikni taʼminlashning muhim omili hisoblanadi.

Umuman olganda, dunyoda milliy-etnik munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bir paytda, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham

oz sonli millat vakillarini kamsitish va ularga zulm o'tkazish birinchi o'ringa chiqayotgan bir paytda, O'zbekistondagi millatlararo va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash sohasida olib borilayotgan ishlarni hech mubolag'asiz yorqin na'muna sifatida qabul qilish mumkin. O'zbekiston xalqlarining asrlar davomida shakllangan hayot yo'li jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotini ta'minlashda xalqlar va dinlararo bag'rikenglik mustakam asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning tinchligi qadriga yetib, turli salbiy illatlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizmga qarshi kurashish har bir fuqaroning insoniy burchi hisoblanadi. Bunga esa faqat o'zida kuch topa olishi, sabr va toqat bilan yengishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sattorov Samariddin-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bosh ilmiy xodimining "Bag'rikenglik - davlat rivojlanishi va barqarorlikni ta'minlashning muhim omili" nomli maqolasi. © 2025 Javoblar.com.
2. Lundberg E. (ed.). Mechanisms of tolerance: an anthology //Margin. – 2006. – T. 2002. – C. 2004. https://www.researchgate.net/profile/Erik_Lundberg/publication/314470566_The_mechanisms_of_tolerance_an_anthology/links/59529e2c0f7e9b3292381a69/The-mechanisms-of-tolerance-an-anthology.pdf.
3. Dr. Magda Rights and tolerance in Islam. <https://ia802805us.archive.org/28/items/learnislampdfenglishbookrightstoleranc>



[einislammagdaamer/learn%20islam%20pdf%20english%20book%20_%20RightsToleranceInIslam_MagdaAmer.pdf](http://www.uznauka.uz/einislammagdaamer/learn%20islam%20pdf%20english%20book%20_%20RightsToleranceInIslam_MagdaAmer.pdf).

4. TOLERANTLIK (BAG‘RIKENGLIK) – Qadriyat [http://pravacheloveka.uz/oz/news/millatlararo-totuvlik-va-diniy bagrikenglikni-taminlash](http://pravacheloveka.uz/oz/news/millatlararo-totuvlik-va-diniy-bagrikenglikni-taminlash).